



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



G‘ARBIY YEVROPA SOTSIOLOGIYASI NAMOYONDALARINING IJTIMOIY-SIYOSIY QARASHLARI

Tuxtamurodova Ruxsora Xasan qizi

*O‘zDJTU, Xalqaro jurnalistika fakulteti,
Siyosatshunoslik yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Yevropa sotsiologiyasi namoyondalarining ijtimoiy-siyosiy qarashlari bayon etilgan bo‘lib, bu nazariyalarning o‘ziga xos jihatlari va umumiy o‘xshashliklarini keltirib beradi. Sivilizatsiyalar ta’sir o’tkazgan jamiyatdagi qatlamlarni qanday muvozanatda saqlash, sotsiologik nazariyalarni boshqa sohalar bilan uyg‘unlashtirish ahamiyatini ko’rsatadi. Bundan tashqari ijtimoiy institutlar va ijtimoiy munosabatlarning muhim jihatlarini ko’rsatadi. Bu institutlarning jamiyatni barqaror holatda saqlashdagi pozitsiyasini ilmiy faktlar bilan asoslaydi.*

Kalit so‘zlar: *sotsiologiya, pozitivizm, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, falsafiy qarashlar, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy munosabatlar, pozitivizm, subyektiv, obyektiv, organizm va hokazo.*

Аннотация: В данной статье описываются общественно-политические взгляды представителей европейской социологии, выявляются специфические аспекты и общие черты этих теорий. Это показывает важность балансирования социальных слоев под влиянием цивилизаций и объединения социологических теорий с другими областями. Кроме того, он показывает важные аспекты социальных институтов и социальных отношений. Научными фактами обосновывается позиция институтов по поддержанию общества в стабильном состоянии.

Ключевые слова: *социология, позитивизм, общественно-политические отношения, философские взгляды, социальные институты, общественные отношения, позитивизм, субъективное, объективное, организм и т.д.*

Sotsiologiya jamiyat, inson, ijtimoiy institutlar va itimoiy birlashmalarni o’rgadigan soha hisoblanadi. Ularni o’rganish bilan bir qatorda, inson va jamiyat o’rtasidagi o‘zar munosabatlarni, bir-biriga qay tariqa va qaysi darajada ta’sir ko’rsatishini tahlil qiladi. Har bir qatlamda sodir bo’ladigan jarayonlar, umumjamiyat taraqqiyotining kelgusi istiqboliga turki bo‘lib, uning yo‘nalishini bashorat qiladi. Sotsiologiya fanining ilmiy va amaliy asoslarini tadqiq etar ekanmiz, bu sohaning turli mintaqalarda turlicha munosabatlarga ega ekanligini, ko’plab jamiyat institutlarining faqatgina o‘ziga xos qarashlarga eka ekanligini, kishilik taraqqiyotining turli bosqichlardan o’tganligini inkor eta olmaymiz. Asrlar mobaynida shakllangan qadriyatlarga tayanuvchi Sharq va har xil shakldagi o‘zgarishlar va yangiliklarga ochiq bo‘lgan G‘arb jamiyatları aksari hollarda umum o‘xshashliklarga ega bo‘lsada, lekin ularning taraqqiyot shakllari bir-biriga o‘xshamagan munosabatlarni namoyon etadi. Aynan Yevropa sotsiologik qarashlarida yangicha iqtisodiy va siyosiy





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



tuzilmalarni o’zida mujassamlashtirgan harakter yotadi. Yevropada XVIII asr va XX asr mobaynida ro’y bergen inqiloblar, ijtimoy-iqtisodiy o’zgarishlar, industrial sivilizatsiyalar jamiyatda axloq, din, san’at, iqtisodiyot va siyosatga bo’lgan yangicha falsafiy qarashlarga sabab bo’ldi. Bu davr

Yevropaning O.Kont, G.Spenser, V.Pareto, G.Zimmel va E. Dyurkgeym kabi ko’zga ko’ringan namoyondalari jamiyatda sodir bo’lgan o’zgarishlarni, shakllangan sotsiologik-falsafiy qarashlarni izohlab berishdi.

Pozitivizm va pozitiv sotsiologiya asoschisi O.Kont (1798-1857) tomonidan yozilgan ishlar orasida 6 tomlik “Pozitiv falsafa kursi” va 4 tomlik “Pozitiv hayat tizimi” muhim o’rin egallaydi⁴⁰. Kont falsafa va sotsiologiyani pozitiv (ijobiy) deb ta’riflar ekan, ular faqat fan ma’lumotlari bilan cheklanmasligini va ularning tarkibiy qismi ilmiy kuzatishlarga asoslanishini ilgari suradi. Pozitivizmning ham asosiy mohiyati, ko’plab tushunarsiz fikrlardan voz kechib, barcha uchun anglashga oson bo’lgan tabiiy-ilmiy qarashlarni isbotlovchi pozitiv ijtimoy nazariyani yaratishdir.

Kontning ta’kidlashicha, jamiyatdagi ijtimoiy muvofiqlik- bu shaxslar va ijtimoiy qatlamlar manfaatlarining bir-biriga mosligidir⁴¹. Chunki jamiyatda turli qatlamlar mavjud bo’lib, ularning manfaatlari to’qnashar ekan, bir-birininng imkoniyatlaridan to’laqonli foydalanishga harakat qilishadi. O’zaro manfaatlар uyg’unligi jamiyatni barqaror holatda saqlab turadi. Aynan jamiyatni yaxlit organizm sifatida tahlil etar ekan, Kont ijtimoiy barqarorlik vaadolatli mehnat taqsimotini, ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini uyg’unlashtirish kerakligini ta’kidlaydi.

Ingliz olimi va sotsiologi Gerbert Spenser o’z asarlarida O.Kontning ham nazariyalarini ham davom ettiradi. Spenserning “Psixologiyaning yaratilishi”, “Sotsiologiyaning yaratilishi”, “Sotsiologiyaning tadqiqot predmeti sifatida”, “Etikaning yaralishi” kabi kitoblari sotsiologiya tarixida muhim ahamiyat kasb etadi.

Gerbert Spenser ham jamiyatga O.Kont singari jamiyatga ijtimoiy organizm sifatida qaradi. Organizm rivojlanib borgani sari, murakkab tuzilmaga aylanadi, undagi qismlar esa bir-biriga uzviy bog’lanadi. Oddiy jamiyatlarining tarkibiy qismlari bir xilligi va ularning bir-biri bilan almashish jarayoni oson, soddarоq kechishi, murakkab jamiyatlarning tarkibiy qismlari murakkab tuzilgани uchun ham o’rin almashish jarayoni mashaqqatliroq, kichkina xatolik ham jamiyat faoliyatida yetarlicha muammolar tug’dirishi mumkinligini ta’minlaydi.

Spenser o’z qarashlarida birinchilardan bo’lib, “ijtimoiy tizim”, “ijtimoiy institut” terminlaridan foydalandi. Individlar o’zaro munosabatning doimiy shakllarini bir necha yirik turdagи institatlarda namoyon bo’lishini ta’kiddadi. Odamlarning oilaviy yashash uy institutini (munosabatlarini) shuningdek, nikoh, oila, tarbiya, jinslar, ota-onasi va bola

⁴⁰A.Begmatov. Sotsiologiya. Ma’ruzalar matni. 2000. – B.40

⁴¹A.Begmatov. Sotsiologiya. Ma’ruzalar matni. 2000. – B.41





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



o‘rtasidagi munosabatlarning tug‘ilishini aniqladi⁴². Oila jamiyat negizi bo‘lgani uchun ham, insonlardagi dastlabki qarashlar oiladagi shakllangan muhitga va tarbiyaga asoslanadi. Oila, din, ta’lim ijtimoiy institutlar asosini tashkil qilib, jamiyatning asosiy ehtiyojlarini qondiradi, ijtimoiy tartib va intizomni saqlaydi. Spenser har bir institut o‘ziga muvofiq ma’lum vazifani bajarishini, agarda bir institut boshqasini vazifasini olmoqchi yoki aralashmoqchi bo’lsa tizimdagи muvozanat buzilishini aytib o’tadi.

Italiyalik iqtisodchi va sotsiolog Vilfredo Pareto sotsiologianing falsafiy masalalarida pozitivism orqali tahlil qilish kerakligini ilgari surdi. Uning fikricha, sotsiologiya jamiyat hayotiga taalluqli bo‘lgan barcha fanlarni qamrab olishi kerak. Jumladan, huquq, iqtisod, siyosat, din tarixi kabi fanlarni ham o‘rganishi kerak. Bulardan maqsad esa, insoniyat tarixiga bu sohalarni umumlashtirgan holda yaxlit nazar solishdir.

Pareto har qanday nazariyani uch sohada qarash lozimligini:

1.Obyektiv – muallifga bog’liq bo’lmagan.

2.Subyektiv – nima uchun muallif nazariya yaratadi, boshqalar qabul qiladi.

3.Utilitar – foydali tomondan qarash, qabul qilish va uni qabul qiluvchiga obyektivlik hamda subyektivlikning o‘zaro xususiyatlari va sharxlarini sotsial fakt asosida tushuntiradi. U faktlarning gnoseologik tabiatи haqida fikr yuritib, uning moddiy yoki idealligini bilish nuqtai nazardan yondashishni takidlaydi⁴³.

Xulosa qilib aytganda, Yevropada kechgan inqiloblar va industrial sivilizatsiyalar o’sha davr sotsiologlarining yangicha qarashlari shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qildi. Yuqoridagi olimlarning sotsiologik falsafiy qarashlari o‘ziga xos bo’lsa-da, lekin jamiyat, undagi tuzilmalar va boshqa sohalarning u bilan uzviy bog’liqligi haqida bir-biriga o‘xshash fikrlarni bayon qilishgan. Jamiyatdagи har bir qatlamning bir-biriga uzviy bog’liqligi va ularning manfaatlari umumlashtirilganda butun tizimda barqarorligi bo’lishi va ijtimoiy adolat teng taqsimlanganda jamiyat rivojlanishi mumkinligi ta’kidlandi. Sivilizatsiyaning yangi to’lqini ijtimoiy ahvolni o‘zgartirgan bir paytda, bu g’oyalar qanday qilib butun tizimni barqaror holatda saqlashni, yangi muhitga moslashish mumkinligini ko’rsatib berdi.

⁴²Sotsiologiya tarixi. XIX-XX asr: O’quv qo’llanma/ B.Normurodov, G.Normurodova; rets. S.K. Karimov, F.H.Nabihev; O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta-maxsus ta’lim vazirligi. – Toshkent: Tafakkur, 2010. – B.39

⁴³ Sotsiologiya tarixi. XIX-XX asr: O’quv qo’llanma/ B.Normurodov, G.Normurodova; rets. S.K. Karimov, F.H.Nabihev; O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta-maxsus ta’lim vazirligi. – Toshkent: Tafakkur, 2010. – B.45





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Begmatov. Sotsiologiya. Ma’ruzalar matni. 2000. – B.40
2. A.Begmatov. Sotsiologiya. Ma’ruzalar matni. 2000. – B.41
3. Sotsiologiya tarixi. XIX-XX asr: O’quv qo’llanma/ B.Normurodov, G.Normurodova; rets. S.K. Karimov, F.H.Nabiyev; O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta-maxsus ta’lim vazirligi. – Toshkent: Tafakkur, 2010. – B.39
4. Sotsiologiya tarixi. XIX-XX asr: O’quv qo’llanma/ B.Normurodov, G.Normurodova; rets. S.K. Karimov, F.H.Nabiyev; O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta-maxsus ta’lim vazirligi. – Toshkent: Tafakkur, 2010. – B.45

